



XOJA UBAYDULLOH AHRORNING ADABIY MEROSSI

Muftullayeva Gavhar Yusupovna

NDU doktoranti

Annotatsiya. *Maqolada Xoja Ubaydulloh Ahrorning adabiy merosi tahlil qilingan. Uning “Tabarruk risolalar” to‘plamiga kiritilgan asarlari adabiyotshunoslar tomonidan tadqiq etilgan asarlariga qiyosan o‘rganilgan.*

Kalit so‘zlar. *Risolayi validiyya, Risolayi havroiyya, Fiqrot ul-orifiyn, Anfosi nafiysa, Tabarruk risolalar.*

Xoja Ubaydulloh Ahror o‘z davrining ijtimoiy va siyosiy jahbalarida o‘z o‘rniga ega bo‘lishi bilan bir qatorda, ilmiy va adabiy merosi bilan ham ma’lum va mashhurdir. “Tabarruk risolalar”da Xoja Ubaydullohning quyidagi asarlari mavjud ekanligi yoritilgan: 1. Risolayi validiyya. 2. Risolayi havroiyya. 3. Fiqrot ul-orifiyn. 4. Anfosi nafiysa.¹ “Risolayi validiyya” asari Xoja Ubaydullohning otasi Xoja Mahmudning iltimosiga binoan yozilgan. Manbalarda ushbu risola “Muxtasar” nomi bilan ham keladi. Odob-axloq, insonning o‘zini tanishi, faqr-u fano masalalaridan so‘z yuritiluvchi ushbu asar qisqa va lo‘nda uslubda yozilganligi uchun shu nom bilan atalgan.² Alisher Navoiy “Xamsat ul-mutahayyirn” asarida Abdurahmon Jomiy huzurida o‘qigan kitoblari orasida ushbu risolani ham sanab o‘tadi va bu haqda quydagicha yozadi: “Yana hazrati Xoja Ubaydulloh...ning otalari ishorati bila bitilgan risolalaridur, ham faqr ham fano tariqidakim, oz o‘g‘ulga bu davlat tuyassar bo‘lub erkinkim, ota amri bila bu nav’ shoyista xizmat qilmish bo‘lg‘ay”.³ Risola Xoja Ubaydullohning otasi Xoja Mahmudning iltimosi va tavsiyasiga binoan yozilganligi haqida asar muqaddimasida ham keltiriladi: “...bu muxtasar risolaning yozilish sababi shu ediki, bu faqirning otasi, Alloh uning va bizning amallarimizni qabul qilsin, menga nisbatan bo‘lgan ishonchi tufayli bu faqirga amr qilib” “bizga avliyolarning so‘zlaridan bir narsa yozib berginki, unga amal qilish, o‘qish va

¹ Хожа Убайдуллоҳ Аҳрор. Табарруқ рисолалар. – Тошкент: Адолат, 2004. – В. 12-13.

² Valixo‘jayev. B. Buyuk ma’nnaviy murshid. – Toshkent: Fan, 2004. – В. 47.

³ Алишер Навоий. Муқаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик. 15-жилд. – Тошкент: Фан, 1999. – Б. 59.



dalillar bilan hosil bo‘lmaydigan ulug‘ maqomotlarga yetishish va haqiqiy ilmlarni hosil qilishga sababchi bo‘lsin...”⁴ Risolaning to‘rtta qo‘lyozma nusxasi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida saqlanmoqda. Zahiriddin Muhammad Bobur asarni she’riy usulda tarjima qilgan. Bu haqda “Boburnoma”da hijriy 935-, milodiy 1528-yil voqealari bayonida shunday yozilgan: “Seshanba kechasi safar oyining yigirma yettisida hazrati Xoja Ubaydullohning «Voldiya» risolasini nazm qilmoq xotirimga kechti. Hazratning ruhiga iltijo qilib, ko’nglimga kechurdumki, agar bu manzum ul hazratning maqbuli bulur, xud Neschukkim sohibi «Qasidai burda»ning qasidasi maqbul tushub, o’zi afrij marazidin xalos bo’ldi, Men dog’i bu orizadin qutulub, nazmimning qabuliga dalele bo’lg’usidur. Ushbu niyat bila ramali musaddasi mahbuni aruz va zarb gohye maxbuni mahzuf vaznidakim, mavlono Abdurahmon Jomiyning «Sabha»si bul vaznidadur, risola nazmiga shuru’ qildim, ham o’shal kecha o’n uch bayt aytildi.⁵

Xoja Ubaydullohning yirik asarlaridan yana biri “Fiqrot ul-orifiyn” risolasi bo‘lib, tariqat masalalarini kengroq qamrab olganligi bilan ahamiyatlidir. “Tabarruk risolalar”da “Fiqrati Ahroriya” nomi bilan keladigan ushbu risola tojik tilida bitilgan nasriy asardir. B. Valixo‘jayev risolaning ba’zi nusxalarda “Voridot (fikrda tug’iluvchi yoki ko’ngildan o’tuvchi narsalar, o’ylar)” deb atalishini yozadi.⁶ Asarning qo‘lyozma va bosma nusxalari mavjud bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik instituti fondidagi 507 raqamli qo‘lyozmada asarning muallif hayotlik paytida ko‘chirilgan nusxasi saqlanmoqda.⁷ Shuni ta’kidlash o‘rinligi, asarning bosh g‘oyasi tawhid, Vahdat ul-vujud falasafasi haqida ekan, muallif Abdulloh Ansoriy (vaf. 481/1089), Imom G‘azzoliy (vaf. 505/1111), Abdulkholiq G‘ijduvoniy (vaf. 575/1117), Fariduddin Attor (vaf. 618/1221), Muhyiddin Ibn al-Arabi, Jaloliddin Rumiy (vaf.

⁴ Хожа Убайдуллоҳ Аҳрор. Табарруқ рисолалар. – Тошкент: Адолат, 2004. – В. 26.

⁵ З.М. Бобур. Бобурнома. – Тошкент: О‘qituvchi, 2008. – Б. 255.

⁶ Valixo‘jayev. B. Buyuk ma’naviy murshid. – Toshkent: Fan, 2004. – В. 47.

⁷ Хожа Убайдуллоҳ Аҳрор. Табарруқ рисолалар. – Тошкент: Адолат, 2004. – В. 13.



672/1273), Afifuddin Tilimsoniy (vaf. 690/1291), Mahmud Shabustariy (vaf. 720/1320) va Xoja Bahouddin Naqshband (vaf. 791/1389) kabi so'fiylarning ba'zilarining asarlaridan bevosita, ba'zilarining esa g'oyalaridan to'g'ridan-to'g'ri foydalangan.⁸ Xoja Ubaydulloh Ahrorning "Fiqrot ul-orifiyn" asari insonni ma'naviy barkamollikka undovchi, ruhni qayta tarbiyalovchi tasavvufiy mazmundagi kitob bo'lib, unda tawhid, vahdat, idtihod, saodat, shaqovat, vasl va sakr kabi istilohlarga to'liq va atroficha javob topish mumkin.⁹ Asardagi har bir fikr Qur'oni Karimdan oyatlar, Hadisi sharifdan misollar bilan quvvatlantiriladi va she'riy usuldagagi parcha orqali asarning badiiyati oshadi. Bunday o'rinlar risolaning aksariyat qismlarida kuzatilgan bo'lib, Xoja "Ehson – Allohga uni ko'rib turganingdek ibodat qilmoqligingdir" jumlasini yoritishda "Qur'oni Karim"dagi "Hadid" surasining to'rtinchi oyati hamda bir nazmiy band keltiradi: "Va huva ma'akum" qayerdan kelganini bilmaysanmi?

Nazm:

U bamo az mo base nazdiktar,

Donad on kaz ko 'z xud darodat xabar.

(Mazmuni: *U bizga bizlardan ham shunday yaqinroqki, buni faqat o 'zidan xabari bor odamgina biladi*)¹⁰

Tasavvufiy mazmunni ifoda etuvchi ushbu fikrlar bugungi hayotimizda ham ahamiyatga egaki, "Allohga uni ko'rib turgandek ibodat qilmoqlik" har bir insonni o'z ustida mulohaza yuritishga, o'zini o'zi idora qilishga, nafsni yengishga, yomonliklardan chekinishga undaydi, deya olamiz.

Xoja Ahrorning keyingi asari "Risolayi havraiya" deb nomlanib, bu asar mashhur shoir Abu Said Abulkayrning bir ruboysi sharhiga bag'ishlangan. Bitta ruboiyning sharhi bir risolaga tengligining ham ma'lum sabablari mavjud bo'lgan

⁸ Abdurrahman Acer. Ubeydullah Ahrâr'in *Fikarât* isimli eseri çerçevesinde tevhide dâir kabulleri. (Ushbu maqola 2016-yil 2-4-dekabr kunlari Istanbulda bo'lib o'tgan "Xalqaro Bahouddin Naqshband va naqshbandiylik simpoziumi"da og'zaki taqdim etilgan, ammo chop etilmagan maqolaning qayta ko'rib chiqilgan va tahrirlangan versiyasidir). – B. 4.

⁹ Xoja Ubaydulloh Ahror. Tabarruk risolalari. – Toshkent: Adolat, 2004. – B. 51.

¹⁰ Ko'rsatilgan asar. – B. 59.



bo'lishi tabiiy. Tasavvufiy mohiyat kasb etgan ushbu ruboiyga Xoja Ubaydullohdan oldin ham murojaat qilingan va sharhlar yozilgan. Bu haqda B. Valixo'jayev shunday yozadi: "...sharh qilinayotgan ruboiy Xoja Ahrorgacha ham mashhur bo'lib, uni sharhlash uchun Sayyid Ne'matulloh Vali (1329-1431) uch risola, Amir Sayid Qosim Anvor (1355-1433) bir risola va shayx Ozariy (1382-1452) bir risola yozgan edilar".¹¹ Xoja Ahror risolani Allohga hamd aytish bilan boshlaydi va Abu Said Abulkayrning bir ruboiysiga uzoq vaqtlardan beri qiziqib yurganligi, biroq tafakkurini chalg'ituvchi ma'lum sabablar tufayli uning ma'nolarini kashf qilishdan benasib ekanligini yozadi. O'zidan avval ruboiyga qilingan sharhlarni sharofatli deya ta'kidlasa-da, ma'nolar sharhi chanqog'ini qondira olmaganini, Alloh tomonidan o'ziga berilgan ilhom tufayli risolani yaratishga kirishganini yozadi: "Nogoh "Kim eshikni nogoh taqillataversa, shaksiz, eshik unga ochiladi" so'zining taqozosiga ko'ra haqiqiy Hazrati Fayyoz bu faqir ko'ngliga ma'nolarni ilhom qildiki, darrov undan taskinlik hosil bo'ldi".¹²

Asarda sharhlangan ruboiyning mazmuni quyidagicha edi:

Hurlar nigorimga qarab saf tortdilar,

Rizvon taajjubdan kaftini kaftiga urdi.

O'shal qora xol ruhlarga xursand bo'ldi,

*Abdol qo'rqinchdan Mus'hafga chang soldi.*¹³

Ruboiyda inson ruhining bu olamni tark etishi va Haq jamoliga muyassar bo'lishi haqida so'z boradi. Xoja Ubaydullohning ta'kidicha, hurlar – bemor tepasida o'layotgan vaqtida turadigan farishtalar, nigor – mahbublik maqomi, rizvon – ko'ngil bog'i, taajjub – ruh chiqayotgan vaqtida dilning o'zidan uzoq narsalarni his qilishi, abdol – nafsoniy quvvat, mus'haf esa inson haqiqatidir. "...ruboiyda Zuljalol jamolining mushohadasidan ruh topadigan lazzat bayoni bor, bu lazzatni biladigan har bir jon o'shal Jamol ishtiyoqidan shunday beqaror

¹¹ Valixo'jayev. B. Buyuk ma'naviy murshid. – Toshkent: Fan, 2004. – B. 47.

¹² Xoja Убайдуллоҳ Аҳрор. Табаррук рисолалар. – Тошкент: Адолат, 2004. – B. 22.

¹³ Ko'rsatilgan asar. – B. 21.



bo‘ladiki, hissiy hayot domidan xalos bo‘lishni juda-juda istaydi.”¹⁴ Qalbida Alloh muhabbatibor inson bu olamni tark etish chog‘ida ushbu ruboyni eshitsa, dunyodan shod holda ketishini Xoja Ubaydulloh risola so‘ngida xulosa sifatida beradi hamda “muhabbat shartlaridanki, hech bir lazzat muhibning Mahbub bilan uchrashishidan oladigan lazzat langlig‘ bo‘lmaydi” deya yakun yasaydi.

“Tabarruk risolalar”da Xoja Ubaydullohning to‘rtinchi asari sifatida “Anfosi Nafiyasa” (Nozik fikrlar) keltiriladi. Ushbu risolada tariqat yo‘lidagi kishilar amal qilishi zarur bo‘lgan amallar, muridning poklanishi, nafl ibodatlarini qay tarzda amalga oshirishi, o‘qiladigan duolar haqida batafsil ma’lumot berilgan.¹⁵ Asar boshqa mutasavvuflarning asarlari bilan Hindistonda nashr etilgan. Risolaning bitta nusxasi O‘zbekiston Respublikasi FA ISh fondida saqlanmoqda. E’tiborli tomoni shundaki, olim B.Valixo‘jayev Xoja Ubaydulloh Ahror faoliyatini batafsil yoritgan “Buyuk ma’naviy murshid” nomli risolasida Xojaning to‘rtinchi asari sifatida “Ruqaot” (Maktublar)ni keltiradi va “Anfosi nafiyasa” haqida so‘z yuritmaydi. B.Valixo‘jayev Xojaning o‘z davrida zamondoshlarining ko‘pchiligiga nomalar yozganligini va ularning ayrimlari, asosan, Alisher Navoiyga yuborganlari saqlanib qolganligini Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat”idagi quyidagi jumlalar bilan tasdiqlaydi: “*Haqir (Navoiy) bilan iltifotlari ko‘p bor uchun vahiyosor ruq’alari (ilhombaxsh omalari) bila musharraf qilib, ishlarga ma’mur (amr, farmon) qilurlar edi. Ul ruq’alarni muraqqa’ (albom) yasab, jadval va takallufot bila tabarruk yo’sini bila asrabmen*”¹⁶. “Navoiy albomi” nomi bilan mashhur bo‘lgan asarning saqlanib, bizgacha yetib kelishida XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi Buxoro adabiy muhitining ko‘zga ko‘ringan vakili Sahrifjon Maxdum Sadri Ziyoning xizmati kattadir.¹⁷

¹⁴ Ko‘rsatilgan asar. – B. 25.

¹⁵ Ko‘rsatilgan asar. – B. 13.

¹⁶ Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. Муқаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик. 17-жилд. – Тошкент: Фан, 1999. – Б. 212.

¹⁷ Valixo‘jayev. B. Buyuk ma’naviy murshid. – Toshkent: Fan, 2004. – B. 48.



Xulosa shuki, Xoja Ubaydulloh Ahrorning adabiy merosi keng va yuqorida tahlil etilgan asarlar inson ruhiy kamolotida muhim rol o‘ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Хожа Убайдуллоҳ Аҳрор. Табарруқ рисолалар. – Тошкент: Адолат, 2004. – В. 12-13.
2. Valixo‘jayev. B. Buyuk ma’naviy murshid. – Toshkent: Fan, 2004. – В. 47.
3. Алишер Навоий. Муқаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик. 15-жилд. – Тошкент: Фан, 1999. – Б. 59.
4. Алишер Навоий. Насойим ул-муҳабbat. Муқаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик. 17-жилд. – Тошкент: Фан, 1999. – Б. 212.
5. Abdurrahman Acer. Ubeydullah Ahrâr’ın *Fikarât* isimli eseri çerçevesinde tevhide dâir kabulleri. (Ushbu maqola 2016-yil 2-4-dekabr kunlari Istanbulda bo‘lib o‘tgan “Xalqaro Bahouddin Naqshband va naqshbandiylik simpoziumi”da og‘zaki taqdim etilgan, ammo chop etilmagan maqolaning qayta ko‘rib chiqilgan va tahrirlangan versiyasidir). – В. 4.
6. 3.M. Бобур. Бобурнома. – Тошкент: O‘qituvchi, 2008. – Б. 255.